

ученику больше возможностей для проявления самостоятельности и инициативы. Работа в группе на уроке технологии содействует осмыслению учебных действий. Вначале, работая совместно, школьники распределяют роли, выясняют и устанавливают функции каждого члена группы, планируют деятельность. Затем каждый сможет самостоятельно осуществлять и реализовывать все эти операции, брать на себя ответственность за результаты своего труда. Групповая форма учебного сотрудничества, помимо этого, выполняет эмоциональную и содержательную поддержку учащихся, без которой многие ученики вообще не смогли бы включиться в общую работу класса.

Ценность современного урока технологии определяется его направленностью на формирование у младших школьников учебной инициативы, самостоятельности, ответственности, способности расширять свои знания, умения действовать по собственной инициативе. Все это способствует успешной социализации младшего школьника, стать активной творческой личностью, способной к самореализации, умеющей устанавливать гармоничные отношения с другими людьми, достигать общих интересов, выстраивать свое поведение и деятельность, учитывая потребности и интересы других.

Список использованной литературы:

1. Государственная программа Российской Федерации "Пазвитие образования" Стратегические приоритеты в сфере реализации государственной программы Российской Федерации "Развитие образования" до 2030 года (в ред. Постановления Правительства РФ от 07.10.2021 № 1701. URL: <https://docs.edu.gov.ru/document/f9321ccd1102ec99c8b7020bd2e9761f/download/4444/?ysclid=lnixg2s7zi976162009>. (дата обращения: 05.10.2023).

2. Конышева, Н.М. Теория и методика преподавания технологии в начальной школе: учеб. пособие [Электронный ресурс] / Н.М. Конышева. – Смоленск: Ассоциация XXI век, 2006. – 294 с. – Режим доступа: <http://biblioclub.ru>

3. Мисюкевич, А.Н. Современное технологическое образование младших школьников: учебно-методическое пособие / А.Н. Мисюкевич. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2020. – 87 с.

UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA IJTIMOY-GUMANITAR YO'NALISH O'QITUVCHILARI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Jumaniyozova M.T., ped. fan. nom.,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti, O'zDJTU**

Annotatsiya. Maqolada malaka oshirish ta'limi va uning o'ziga xos xususyatlari, oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini takomillashtirishning zamonaviy texnologiyalari va ularni qo'llashda ta'lim jarayonini loyihalash shartlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, malaka oshirish, raqamli gumanitar ta'lim.

Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlaridagi nazariy bilim olishga

yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida o'qituvchilarning kasbiy bilim va saviyasini yuksaltirish, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Oliy ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmuni va maqsadi o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayonida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga qaratilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari va fan dasturlarini rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o'quv jarayonini sifat jihatidan yangilash ta'lim beruvchining kreativ faoliyatini taqozo etadi.

Katta yoshlilar ta'limi jarayonida ularga o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish, interaktiv muloqot maydoni, ishbilarmonlik va kreativlikka yo'naltirilgan treninglar, debatlar keng foydalanish lozim. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida, yangi g'oyalarga intilishda, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida shunga amin bo'ldikki, egallangan bilimlarni qayta-qayta takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, kreativ fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ma'ruza o'qituvchisi butun dars davomida ma'ruzani chiroqli gapirib bersa-yu, bu jaaryonda ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z nuqtai-nazarlarini erkin bayon etishga yo'naltirmasa, mavzu doirasida ishtirokchilarning tasavvurini rivojlantirishga e'tibor qaratilmasa, ularda kreativ ko'nikmalar hosil bo'lishiga erishmasa darsning samaradorligi past hisoblanadi. Quyida ayrim texnologiya va metodlarni keltirib o'tamiz:

«Flipped classroom» texnologiyasi. «Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi» moduli bo'yicha «Zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlari» mavzusi misolida.

Mazmuni: yuzma-yuz va onlayn ta'lim o'rtasidagi qo'shma ta'lim usuli. Odatda, bu usuldan foydalanganda, darsda yuzma-yuz o'rganish foizi kamroq bo'ladi va ishonchli raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Mustaqil ta'limga asoslangan bo'lib, uni qo'llash jarayonida shaxsni o'z faoliyatini mustaqil tashkillashtirish ko'nikmasi, rivojlanishdan to'xtamaslik, maqsadlarini aniq belgilash ko'nikmalari shakllanadi.

Bugun jahon ta'lim tizimida keng qo'llanayotgan «flipped classroom» ("teskari sinf") texnikasi ta'limni tashkil etishga zamonaviy yondashuv bo'lib, unga ko'ra ta'lim oluvchi o'quv materialini o'zlashtirishining asosiy qismi auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishiga to'g'ri keladi.

«Flipped classroom»—bu o'quv materiali ta'lim oluvchiga auditoriyadan tashqarida mustaqil o'qishi uchun beriladigan va uni amaliy mustahkamlash esa dars vaqtida amalga oshiriladigan o'quv modeli hisoblanadi. Bu jarayonda auditoriyadagi ta'lim murakkab nazariy qism va ta'lim oluvchi mustaqil o'zlashtirishi jarayonida yuzaga keladigan savollarni tahlil qilishga bag'ishlanadi (darsning 25-30% dan ko'p bo'lmagan),

shuningdek, auditoriyada o'qituvchi bilan hamkorlikda amaliy vazifalarni va tadqiqot vazifalarini bajaradilar.

Ta'limning bu modeliga o'tish darsda o'qituvchining ustunligidan ta'lim oluvchining ustunligiga o'tishni bildiradi. Xorijiy adabiyotlarda bu o'tish majoziy ma'noda o'qituvchi rolining "sahnadagi donishmand"dan "yon tomondagi qo'llanma"ga o'zgarishi sifatida tasvirlanadi [40].

«Flipped classroom» ("Teskari sinf") modelining asoschilari Djonatan Bergman (Jonathan Bergman) va Aaron Sems (Aaron Sams) darslarni tez-tez o'tkazib yuboradigan talabalarga o'z ma'ruzalarini taqdim etish, ularni o'zlashtirishini nazorat qilish maqsadida o'z ma'ruzalarini va talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimini dasturiy vositalar yordamida elektron shaklda yaratadilar va amalda qo'llaydilar.

Ushbu yondashuv asosida Salmon Xan tomonidan "Xan akademiyasi" ("Khan academy") platformasidagi turli fanlar bo'yicha 29 tilda yaratilgan qisqa video ma'ruzalardan iborat resurslardan butun dunyo bo'ylab 199 ta davlatda 74 million ortiq ta'lim oluvchi foydalanib kelmoqda. Xanning bu akademiyasiga qisqa ma'ruzani masofadan turib ko'rish, ya'ni "teskari o'rganish" prinsipi asos bo'lgan.

Flipped classroom ("Teskari sinf") ko'pincha masofaviy ta'lim bilan aralashtiriladi. Uning masofaviy ta'limdan farqi shuki, o'qituvchi va ta'lim oluvchining "yuzma-yuz" holda auditoriyadagi dars vaqti o'zgarishsiz qoladi, faqat uning mazmuni tubdan o'zgaradi. Ya'ni ta'lim oluvchilar darsda o'qituvchining uzundan-uzoq ma'ruzasini zerikish bilan tinglab o'tirmasdan, darsda o'quv materialini asosiy qismi bilan oldindan tanishgan holda ishtirok etadilar. Modul-kredit tizimiga ko'ra o'quv materialini o'zlashtirishning muhim qismi mustaqil ta'limga to'g'ri keladi.

Maqsadi: kurs tinglovchilarning mustaqil ta'limini mazmunini takomillashtirish, kreativ fikrlashini faollashtirish, masala yechimini ongli ravishda izlash qobiliyatini rivojlantirish, muammolarni hal qilish malakasini shakllantirish;

Mashg'ulotni loyihalash tartibi: mashg'ulot ikki qismdan iborat: 1 bosqich tinglovchilarning mustaqil ishi rejasini, (Podcast) va Vodkast (Vodcast ot video-on-demand)larni tayyorlash va bajarish bosqichlarini belgilash; ikkinchi bosqich auditoriyadagi muhokama va oflayn mashg'ulot.

O'quv materialini tayyorlash. Pre-vodkasting (Pre-Vodcasting) -bu ta'lim oluvchilar darsdan oldin mavzu haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun ishlab chiqadigan o'quv materiallarining elektron jamlanmasi hisoblanadi. Translatiya (oldindan vodkasting)dan uchun Podcast (Podcast) -bu o'qituvchi Internet orqali yuboradigan audio fayllari tayyorlanadi (audio ma'ruza). Qabul qiluvchilar podkastlarni statsionar va mobil qurilmalariga yuklab olishlari yoki ma'ruzalarni onlayn tinglashlari mumkin. Vodkast (Vodcast ot video-on-demand- talab bo'yicha videofayldan iborat) podkast bilan bir xil, faqat videofayllar bilan ishlanadigan qism hisoblanadi. O'rganilayotgan mavzu doirasida podkast va vodkastlar uchun YouTube dagi <https://youtu.be/IIUnT8>, <https://youtu.be/SlwikU>, <https://youtu.be/be> havolalardan foydalanish mumkin.

O'quv mashg'ulotini o'tkazish texnologiyasi.

1-bosqich: tinglovchilar mustaqil o'rganishi uchun vodkast texnologiyalaridan foydalanib, video ma'ruzani va havolalarni darsgacha tomosha qilishi, o'quv uslubi majmua, chizmalarini ko'rib chiqish talab etiladi. Flipped classroom ("Teskari sinf") modeli ta'lim oluvchiga mavzuni o'rganish uchun qancha vaqt kerak bo'lsa, shuncha vaqt sarflashga imkon beradi, shuning uchun samarali hisoblanadi, chunki istalgan vaqtda ma'ruza yozuvini to'xtatib qo'yish yoki orqaga qaytarish mumkin. Zoom, Skype va

boshqa mobil platformalar Facebook, telegram, instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar ham ta'lim berish vositasiga aylanadi.

2-bosqich. Auditoriyadagi yuzma-yuz mashg'ulot bosqichi. Bu bosqichda darsga o'quv material bilan tanishgan holda tashrif buyurgan tinglovchilar uchun mavzu doirasida kreativ topshiriqlar, savollar, materiallar analiz, sintez va baholash xarakterida bo'lishi talab etiladi.

Texnologiyaning afzalligi: An'anaviy o'qitish modelida barcha ta'lim oluvchilarning bir vaqtda bir xil tezlikda o'zlashtirishi talab etiladi, lekin buni amalga oshirish imkonsiz. Shu sababli o'qituvchi tez sekin o'zlashtiruvchilar o'rtasidagi oraliq holatga mo'ljallab darsni tashkil qiladi. Flipped classroom esa mavzuni to'liq tushungan ishtirokchiga keyingi mavzuga o'tib ketish imkoniyatini beradi.

Yana bir samarali tomoni shundaki, o'quv materialining nazariy qismi oldindan tanish bo'lganligi sababli auditoriyadagi dars mashg'uloti jonli, bahs-munozaraga boy bo'ladi va motivatsiyani yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi. O'qitishning bu modelini amalga oshirishda Google Classroomdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kamchiliklari. Yuqori sifatli kontent yaratish o'qituvchidan juda katta energiya, vaqt va resurslarni talab qiladi. O'qituvchi onlayn/offlayn rejimida ishlashi uchun yuqori darajadagi kompyuter savodxonligi va ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Mashg'ulot dasturi qiziqarli bo'lishi va ta'lim oluvchilarni rag'batlantirishi uchun qo'yilgan vazifalar ehtiyojlar va turmush tarziga mos kelishi, matnlar emas, ko'proq videolar tayyorlanishi hamda bu videolar qiziqarli, qisqa bo'lishi lozim.

Flipped classroom ("Teskari sinf") modelida ishlash ijtimoiy-gumanitar yo'nalish o'qituvchilaridan yuqori darajadagi raqamli savodxonlikni talab etadi. O'quv materialining barcha qismi auditoriyadan tashqarida mustaqil o'rganish uchun ishlatilishi mumkin emas, shuningdek har bir dars bu model asosida bo'lishi talab etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Давтян А.М. Формирование креативной компетентности учащихся в условиях школьного дополнительного образования: методические рекомендации для учителей. – Челябинск: Издво ИИУМЦ «Образование», 2006. – 51 с.
2. Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. – Ростов-н/Д., 2000. – 440 с.
3. Де Боно Э. Латеральное мышление. // - СПб.: Питер Паблишинг, 2007. -320 с.
4. Jumanioyozova M. O'qituvchining kreativ kompetentligini takomillashtirish texnologiyasi.// Monografiya. ISBN 978-9943-5825-9-0/ – Toshkent, Metodist nashriyoti, -2023. -224 b.
5. Innazarov M.A. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish. / 13.00.07- Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha metodikasi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.-2020.-224 b.